



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

G‘AFUR G‘ULOMNING “YODGOR” QISSASIDA INSON TAQDIRI VA OBRAZLAR TAHLILI

Nurullayeva Munisa

Nizomiy nomidagi O‘zMPU Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Atabayeva Go'zal Farxodovna
ilmiy rahbar: PhD dotsent

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada G‘afur G‘ulomning XX asr o‘zbeklar hayoti, ijtimoiy holati, ilm bilan baxtga erishish masalasi, insonlar taqdirining turli rakurslardagi ko‘rinishi, davr, zamon, makon tushunchalari ask ettirilgan asari haqida so‘z yuritiladi.

KALIT SO‘ZLAR: qissa, badiiy tafakkur, inson taqdiri, xarakter.

G‘afur G‘ulomning ushbu asari qissa janriga oid bo‘lgani sababli, avvalo, mana shu janr xususida qisqacha to‘xtalsak. Qissa - (arabcha — tarix; hikoya, rivoyat, voqea) — badiiy adabiyotda epik janr turlaridan biri. G‘arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida povest ma’nosidagi qissa tushunchasi yo‘q. Qissa, odatda, bir va bir necha shaxslar taqdiriga oid turli voqealarni o‘ziga asos qilib olishi bilan epik turning hikoya, hajmi va mazmunining nisbatan cheklanganligi bilan romandan farq qiladi. Qissalar hayot murakkabliklarini hikoyaga nisbatan kengroq, xarakter hamda voqelik ko‘lamini romanga qaraganda kamroq qamrab oladi. Qissada u yoki bu shaxs hayotining ma’lum bir davri xronikal tarzda bayon qilinadi.



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

G'afur G'ulomning “Yodgor” qissasi 1936-yilda yozilgan bo‘lib, unda 1930-yildan boshlangan voqealar yoritilgan. Hech qaysi bir asar shunchaki yozilmaganidek, ushbu qissani ham ijodkor davr talabi va o‘zining istaklari mahsuli sifatida yozdi. Hali 2-Jahon urushi boshlanmagan, ammo 1-jahon urushining izlari, oqibatlari oddiy xalq hayotini qanchalik og‘irlashtirib yuborgani, o‘sha davrdagi insonlar taqdiri ro‘yi-rost aks ettirilgan. Yozuvchi asarni folklardan ilhomlangan holda, xuddi ertakdek yaxshilik bilan yakunlaydi, yumoristik usulda yozadi. Asar voqealari bosh qahramon Jo‘ra tilidan hikoya qilinadi va shu bilan bir qatorda ijodkor o‘zining asosiy maqsad va istaklarini ham uning tilidan kitobxonga yetkazadi. Jo‘raning haqiqiy inson ekani asar boshidan yaqqol ko‘rinadi. Negaki u hali yosh yigit bo‘la turib, oilali bir begona ayolning eri rolini o‘ynab berish va unga taloq pattasi olib berish vazifasini bajarish uchun ZAGSga boradi. Va hayotidagi eng chalkash, zulmat kunlar mana shundan boshlanadi, ayol unga tuhmat qilib, endi tug‘ilgan farzandini tashlab ketadi. Xo‘sh, bu ishni, yaxshilikni qilishga uni nima majbur qildi? Erkaklik g‘ururi. Chunki ayolning unga “birovga xolis yaxshilik qilganmisiz?” degan savol va iltimos nazari bilan qaraganining o‘zida Jo‘ra "ha" deb, unga oldindan va'da berib qo‘ygan edi. Iltimosni eshitganidan keyin ikkilanib turganida esa ayol unga haqiqiy erkak qabul qila olmaydigan keskin haqorat gaplar bilan uni yerga uradi va Jo‘ra qarshisidagi ayolning bu so‘zlariga taslim bo‘lib, “xo‘p” deydi. U haqiqatan ham, hech qanday manfaatsiz, foydasiz “xolis yaxshilik” qildi. Mehriniso tomonidan tilga olingan bu jumlaning asarning boshidan oxirigacha bo‘lgan kalit so‘zi desa bo‘ladi. Jo‘raning butun hayoti mana shu yaxshiligini deb tubdan o‘zgarib ketdi. Barcha yaqinlari, hattoki o‘z jigari akasi va opasi ham undan voz kechdi, ammasi qizini bermasligini aytdi. Butun mahalla uni masxara qildi. Faqatgina kampir, Jo‘raning onasi, avval biroz koyigan, yig‘lagan bo‘lsa ham, ko‘p o‘tmay bu chaqaloqni nabiram deb qabul qildi, mehr qo‘ydi, hamma



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

chaqaloq bilan ovundi, uyda g'iybat qilishga ham vaqt qolmadi. Bola och qolib yig'laganida unga bodomni ezib, dokaga solib bergan holatida biz o'sha paytdagi xalq hayotining qanchalik og'ir bo'lganini his qilishimiz mumkin. Jo'raning qora kunlari mana shu yergacha edi, endi uning yorug' kelajak sari bosilgan ilk qadami qizil armiya sallotga xizmat qilishga ketishidan boshlandi. Shu o'rinda yozuvchi har bir inson xuddi Jo'radek Vatanga muhabbatli bo'lishi, uni sevish, ardoqlashi va sidqidildan xizmat qilishi kerakligini uqtirib o'tadi. Jo'ra shunchaki xizmat qilmaydi, balki o'z ustida ishlab, qattiq o'qiydi, komandir nazariga tushadi va xizmatni tugatib, uning maslahati bilan Leningradda meditsina yo'nalishiga o'qishga kiradi. Yozuvchi uni ilmi qilib qaytaradi. G'afur G'ulom mana shu joyida o'sha davrda o'zbek tilimizga nisbatan past nazar bilan qaralishini Jo'raning hamma fanni mukammal o'zlashtirib, faqatgina ona tilidan no'noqligini, Leningradda rus tilini zamon talabi bo'lgani uchun majbur o'rganib, baribir imlodan xatolari ko'pligini aytib o'tishi bilan kuyunib yozadi. Ona tilimiz uchun bu katta fojia edi. Shu bilan bir qatorda, Yodgorning bog'chadan yodlab kelgan:

“Oq oltin dalalar qo'limizda, partiya bizning yo'l boshchimiz”

Jo'ra o'qib yurgan paytlari ammasining qizi Saodat ham pedtexnikumga o'qishga kirib, keyinchalik komsomolda ishlardi. Bu yerda ishlashning qiymati ham harbiy xizmat bilan teng edi. O'qish xabarini yozgan Saodatning maktubiga Jo'ra “Kelajakda baxtli bo'lishni istagan har bir qiz ilmi bo'lishi kerak”, deb yozgan javob maktubidagi bu jumlar G'afur G'ulomning eng katta istagi, ich-ichidan xohlagan maqsadi edi va buni asarga kiritib, Jo'ra tilidan kitobxonga yetkazadi va asardagi Saodatni o'qimishli qilib gavdalantirdi. Masalan, Saodatni avval otasi uni o'qitishga qo'ymaydi, lekin yozuvchi bunga o'zgartirish kiritdi, ya'ni Saodatning dugonalarini iltimosi bilan otasining unga rahmi kelib, pedtexnikumda o'qitdi. Saodat mana shu o'qishi, ilmi ortidan katta-katta



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

yutuqlarga erishdi, mahallaning eng faol, zamonaviy ayoliga aylandi. Jo‘raning singlisi Qumri ham to‘qimachilik kombinatiga ilk yildanoq o‘qishga kirdi. Asar boshida Jo‘rani aldab ketgan Mehriniso ham sevgani bilan birga o‘qib, o‘z yo‘llarini topishadi, moddiy jihatdan qiynalmaydi, ammo qilgan gunohiga yarasha jazosini oladi, ma’naviy azob chekadi. Boshqa farzand ko‘ra olmaydi. To‘g‘ri, uni ham tushunish kerak, chunki u ham shu davr qurboni bo‘lgan. Ota-onasi Mehriniso ta‘biri bilan aytganda, “eski odamlar” bo‘lgani sabab ular uchun sevgining ahamiyati yo‘q edi va ular o‘zlari istagan insonga turmushga bermasliklari uchun, sevgi yo‘lida harakat qildi, lekin to‘g‘ri yo‘lni topa olmadi. Uni onalik mehri bir umr tinch qo‘ymadi, hatto sevgan insoni bilan birga bo‘lsa ham bolasi uchun har doim kuyundi, qilgan ishidan afsuslandi, vijdoni qiynaldi, oxir telbadek bo‘lib qoldi, hech qaysi shifokor uni davolay olmadı. Yozuvchi har bir qahramon ismini uning xarakteri va taqdiridan kelib chiqib tanlagan. Mehriniso aslida ismiga mos obraz, ya’ni yoriga ham farzandiga ham mehrlı bir ayol. Saodat ham Jo‘raga, ham Yodgorga baxt va ikki dunyo saodatini olib kelgan obraz. Jo‘ra esa yaxshi-yu yomon insonlarga birdek yordam qo‘lini cho‘za oladigan, og‘ir kunida yonida bo‘la oladigan haqiqiy do‘stning ishini qila oladigan qahramon, bu fazilati esa Mehrinisoga qilgan yaxshiligidan ayon. Asar insoniylikni ulug‘lab yozilgan va buni biz Jo‘ra obrazida ko‘rishimiz mumkin. U va‘dasida tura oladigan mard yigit. Asar davomida u uch kishiga va‘da berdi va bajardi, bu yo‘lda to‘siqlarga, ortiqcha qiyinchiliklarga uchrasa ham. Avvalo, Mehrinisoga bergan va‘dasining ustidan chiqdi, boshiga balo orttirgan bo‘lsa ham. Keyin esa komandiriga harbiy shifokor bo‘laman deb va‘da berdi, bajardi, aviatsiya xodimi bo‘lishni taklif qilishgandi ham. Va oxrida Saodat bilan va‘dalashdi o‘z sohasining mutaxassisi bo‘lib qaytib, unga uylanishga, buni ham, tabiiyki, bajardi. Jo‘ra unga qilingan har qanday nohaqlikni, yomonlikni kechiradi, har doim mehr va nafrat unda birga yurardi, biroq mehr tuyg‘usi doim



International Conference on Education, Psychology and Humanities

Hosted Online from Moscow, Russia

Date: 28th April, 2026

Website: <https://econferencia.com>

g'alaba qozondi, Mehrini ham kechirdi, asar so'nggigacha mard insonligicha qoldi, ayolini sotmadi, ham unga, ham og'aynisiga yana do'stlik qildi. Jo'raning butun hayoti, taqdiri o'zgarib, yangi qahramon yaratdi. Chunki u asar boshida xalq qatori oddiy, o'qimagan, tayinli ishi ham yo'q bir yigit edi, keyin-chi? Ilmi ortidan u butkul boshqa hayotda yashashni boshladi. Undan voz kechganlarning barchasi qaytdi, hattoki uning birgina suratiga havas qildilar. Saodat ham uniki bo'ldi. Yodgor esa aslida unga kulfat emas, ulkan baxt, hayotiga rang olib kirdi. Endi Yodgor kampir aytgandek, Jo'radan kampirga yodgor bo'lib emas, balki Mehridan Jo'raga yodgor bo'lib qoldi...

Asardan biz shuni anglashimiz mumkinki, ijodkor qahramonlar hayotiga qancha muammolar, chalkashliklar olib kirgan bo'lsa ham barchasining yechimi sifatida ilmni ko'rsatdi. Ilmi, ma'nan yuksak bo'lish orqali qiyin hayotni ham osonlashtirish, yaxshilash mumkinligini isbotladi. Badiiy tafakkur bilan inson taqdirining o'zgarishini ushbu asarda ko'rsatib bera oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'afur G'ulom. "Yodgor". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983.
2. Nazarov B. G'afur G'ulom olami. – Toshkent: "Fan", 2004.
3. Normatov U. G'afur G'ulom poeziyasining estetik prinsiplari. "O'zbek adabiyoti masalalari" – Toshkent: "O'zadabiynashr", 1959.
4. Mamajonov S. Uslub jilolari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1972.
5. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 5 t. – Toshkent : Fan, 1986.
6. <http://ziyonet.uz/>
7. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/1-ziyouz-com-kutubxonasi>
8. <https://arboblar.uz/uz/people/gafur-gulyam>
9. <https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/gafur-gulom>
10. <https://ilmlar.uz/gafur-gulom-tarjimai-holi-g-gulom-biografiyas>